

UZUMNING XO'RAKI NAVLARINI SAQLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

¹Maxmurov Doston Menglibek o'g'li

²Umidov Shavkat Ergashevich

¹Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

²Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7162223>

Annotatsiya: Respublikamizda qishloq xo'jaligining barcha soxalari, shu jumladan, uzumchilikni jadal rivojlantirish uzum hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ulardan qayta ishlash sanoatida tayyorlanadigan mahsulotlarni kupaytirish, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning uzum va mayizga bo'lgan talabini to'la qondirishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Dunyo bo'yicha uzum yetishirish hajmi 52 mln. tonnani tashkil etmoqda. Bu borada Turkiya (353,167 ming tonna), AQSh (332,760 ming tonna), Eron (122,595 ming tonna), Gresiya (72,861 ming tonna), Chili (51,128 ming tonna), Janubiy Afrika (37,049 ming tonna) kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda¹. O'zbekistonning ko'plab mintaqalari qisqa muddatda jahon bozorida xaridorgir bo'lgan meva va uzum mahsulotlari yetishtiradigan va eksport qiladigan hududlarga aylandi. Yurtimizda yuqori hosil beradigan uzum navlaridan tokzorlar tashkil qilindi, tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, uzumchilik, saqlash va qayta ishlash, hosildorlik. Mamlakatimizda tokzorlar maydoni ham o'z salmog'iga ega. Masalan, 1924 yilda tokzorlar 23,5 ming ga, 1990 yilda 132,2 ming ga, 2012 yilda 126,6 ming ga maydonni tashkil etgan. Bog'dorchilikka-uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar soni 1924 yilda tokzorlar 4 ta, 1990 yilda 1278 ta, 2012 yilda 21660 tani tashkil etgan, jami bog'-tokzorlar maydoni esa 1924 yilda tokzorlar 1.7 ming ga, 1990 yilda 364 ming ga, 2012 yilda 377 ming ga maydonni tashkil etgan. Uzum ishlab chiqarish esa 1924 yilda 80 ming tonna, 1990 yilda 744,7 ming tonna, 2012 yilda 1204,6 ming tonnani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar hosildorlikuni sezilarli darajada oshganligin ifoda etib turibdi.

Aholini yil davomida meva-sabzavotlar bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida zamonaviy andozalar asosida issiqxonalar bunyod etish, bog'lar, tokzorlar maydonini kengaytirish, yetishtirilgan hosilni kuz-qish davrida sifatli saqlash imkonini beradigan omborxonalar barpo etish sa'y-harakatlari ham alohida e'tibordaki, bu oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotining barqarorligiga, boshqacha aytganda, aholi dasturxonini farovonligiga xizmat qilmoqda.

Xo'raki uzumni saqlash bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan. YA. Nikitinskiy, A. Shirokov, A. Polegaev, S.YA. Islamov, X. Shaumarovlar o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash bo'yicha izlanishlar olib borgan. Shunday bo'lsada, xo'raki uzum navlarini saqlashgacha ishlov berishning saqlashga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar endi boshlanmoqda. Bu tushuncha bir necha yillar oldin sovutkichli omborxonalar sohasiga kirib kelindi. Ammo hozirgi kunda bu tizim ilmiy asoslangan bo'lib, butun dunyo bo'yicha keng tadbiiq etilmoqda.

Mahsulotlarning saqlashga chidamliligi ularni qulay sharoitda saqlash muddati bilan aniqlanadi. Uzumni saqlashga chidamliligini ma'lum zona va faslda hamda agrotexnik, texnologik rejimda namoyon bo'lishi *saqlanuvchanlik* deb ataladi. Saqlanuvchanlik odatda saqlash davrida mahsulotlarni yo'qotish og'irligini foizlarda hisoblangan miqdori bilan belgilanadi.

Umuman olganda uzumning saqlashga chidamliligi ularning tabiiy xususiyatidir. Shuning uchun bir navning o'zi har xil sharoitda turlicha saqlanishi mumkin.

Uzumni joylash usuli ham saqlanuvchanlikka ta'sir ko'rsatadi. Qog'oz qutilarga qadoqlangan va maxsus oltingugurtli qog'ozlar joylashtirilgan uzumlar boshqalariga qaraganda yaxshi saqlanadi. Uzumni saqlanadigan omborlarning bir necha xili bor. Ayrimlarini qurish arzonga tushadi, ammo ular takomillashgan va sovutgichsiz bo'ladi, boshqalarda sun'iy sovutgichi bo'ladi. Lekin har qanday ombor izotermik bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda sovutkichli omborlarda mahsulotlarni saqlashda kompleks tadbirlar qo'llanilmoqda. Saqlashga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda jarayon tashkil etilishiga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ham saqlashning ushbu usuli bir necha yillardan beri qo'llanilib kelinmoqda. Lekin bu sohada faoliyat yurituvchilarning barchasi ham mazkur usulning mohiyati va afzalligidan yetarlicha xabardor emas. Natijada yurtimizda yetishtirilayotgan sifatli mahsulotlarni chet mamlakatlarga eksport salohiyati yetarli bo'lsa-da, imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti.

Shu sababli yurtimizda yetishtirilayotgan mevalarni saqlashda innovatsion usullarni qo'llash, jumladan sovuq zanjir tizimini qo'lashning ahamiyati nihoyatda muhim ekanigini ta'kidlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4549 sonli qarori-Toshkent -2019
2. Agrar va oziq-ovqat sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4643 sonli qarori-Toshkent -2020